QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR - FEVRAL***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



**Sanoat statistikasi bo’limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 2767,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 102,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.

| 0,1 % | 84,6 % | 14,8 % | 0,5 % |
|---|---|---|---|
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral |
|---|---|---|
| B | 63,1 % | 11,5 % |
| C | 105,7 % | 103,3 % |
| D | 133,0 % | 107,4 % |
| E | 74,5 % | 103,9 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 3,3 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 7,4 % ga,* suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – *3,9 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar -fevral**

**B**

| Yil | Hajm | Ulushi |
|---|---|---|
| 2022- yil | 3,6 mlrd. so’m | 11,5 % |
| 2021- yil | 6,0 mlrd. so’m | 63,1 % |
| 2020- yil | 12,0 mlrd. so’m | 21,9 % |

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini tashkil etdi.*

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 0,2 % | 0,1 % |

Yanvar-fevral

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 28,8 | 45,2 | 16,4 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 348,5 | 246,4 | -102,1 |
| Gaz kondensati, ming t. | 17,4 | 13,1 | -4,3 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2341,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,6 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-fevral** 84,1 %

**2022-yil yanvar-fevral** 84,6 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,03 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 63,7 % (70,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,6 % (2,1 %) va quyi texnologiyalisi – 33,7 % (27,5 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 63,7 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,6 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 11,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,5 %) tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*


















2022- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 47,7 ming tonna portlandsement (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 15,9 % ga), 19,7 ming tonna paxta chigiti (33,4 %), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 14,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (5,4 % ), 617,7 ming litr aroq (10,4 %), 2,0 ming tonna kalava ip (12,2 %), 1,2 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (39,9 %) va 0,7 ming tonna tozalangan guruch (33,8 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq, *ming litr 100 % li spirt*** | 689,3 | 617,7 | -71,6 |
| **Polietilen, *ming t.*** | 61,4 | 48,8 | -12,6 |
| **Polipropilen, *ming t.*** | 15,8 | 14,0 | -1,8 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 15,3 | 14,5 | -0,8 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 9,1 | 12,3 | 3,2 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 1,9 | 1,2 | -0,7 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 69,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,8 % nitashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,7 % ni, fizik hajm indeksi 89,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1490,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 50,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 52,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 242,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 33,6  mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 140,3 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chi-qarishning ulushi 19,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,0 % ga oshgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 463,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 124,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 165,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 23,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 410,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,8 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,4 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 829,4 | 1016,4 | 187,0 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 20,0 | 15,7 | -4,3 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m*** | 31486,0 | 33902,3 | 2416,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 1022,4 | 1076,8 | 54,4 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 2455,0 | 2926,4 | 471,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 7303,9 | 8651,9 | 1348,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 18,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 5,3 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 19,2 % ga oshganligi kuzatildi.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 316,0 mlrdso‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 97,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021-yil yanvar-fevral | 2022-yil yanvar-fevral |
|---|---|
| 69,5 % | 69,3 % |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021-yil yanvar-fevral | 2022-yil yanvar-fevral |
|---|---|
| 30,5 % | 30,7 % |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 10,5 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 11,8 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 19,8 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,5 % ni, Beruniy tumani 8,9 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,7 % ni, Ellikqal’a tumani 8,0 % ni, Chimboy tumani 7,3 % ni, Xo'jayli tumani 6,2 % ni, Amudaryo tumani 5,9 % ni, tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (97,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mo'ynoq (156,1 %), Ellikqal’a (134,5 %), Chimboy (123,4 %), Qorao'zak (122,4 %), Nukus (116,2 %) hamda Qo'ng‘irot (107,2 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 19,8 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,5 % ni, Beruniy tumani 8,9 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,7 % ni, Ellikqal’a tumani 8,0 % ni, Chimboy tumani 7,3 % ni tashkil etdi.*




*311,1 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-fevral*

*304,2 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-fevral*

*316,0 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-fevral*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** **104,4 %**

**2021- yil** **103,3 %**

**2022- yil** **97,1 %**

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib, 15,6 % ni, shuningdek, Beruniy tumani 13,3 % ni, Nukus shahri 12,2 % ni, To‘rtko‘l hamda Xo'jayli tumanlari 9,1 % ni, Chimboy tumani 8,4 % ni, Amudaryo tumani 7,4 % ni tashkil etdi.*

**124,8** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-fevral*

**91,4** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-fevral*

**96,9** mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-fevral*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 104,2 %

02 2021- yil 96,3 %

03 2022- yil 97,7 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 23,2 %, shuningdek, Taxiatosh 18,6 % ni, To‘rtko‘l 8,5 % ni, Beruniy 7,0 % ni, Chimboy 6,8 % ni, Taxtako‘pir 6,2 % ni, Amudaryo 5,3 % ni ham Qo‘ng‘irot 5,2 % ni tumanlari tashkil etdi.




*186,3* *mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-fevral*

*212,8* *mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-fevral*

*219,1* *mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-fevral*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 104,6 %

02 2021- yil 106,7 %

03 2022- yil 96,8 %

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari Kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,0 %), Taxiatosh (14,2 %), Beruniy (5,9 %) To‘rtko‘l (4,2 %), Qo‘ng‘irot (3,8 %) va Amudaryo (3,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

**2020- yil**
2110,1 mlrd. so‘m

**2021- yil**
2520,9 mlrd. so‘m

**2022- yil**
2767,9 mlrd. so‘m



105,2 %
**2020- yil**

105,0 %
**2021- yil**

102,6 %
**2022- yil**



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (4667,7ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 5233,8 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (1429,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 1156,9 ming so‘m

**2021- yil** — 1329,6 ming so‘m

**2022- yil** — 1429,6 ming so‘m



01 — 2020- yil — 103,6 %

02 — 2021- yil — 103,6 %

03 — 2022- yil — 101,3 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 163,2 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 608,0 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 417,1 ming so‘mni, Chimboy tumanida 202,2 ming so‘mni va Nukus shahrida 191,9 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 165,1 ming so‘m

**2021- yil** — 159,2 ming so‘m

**2022- yil** — 163,2 ming so‘m



**2020- yil** — 102,9 %

**2021- yil** — 101,9 %

**2022- yil** — 95,8 %



## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3232 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1573 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 48,7 %) Nukus shahriga 664 tasi (20,6 %), To‘rtko‘l 331 tasi (10,2 %), Amudaryo 297 tasi (9,2 %), Beruniy 281 tasi (8,7 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil — 121 dona

2021- yil — 131 dona

2022- yil — 109 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil — 2403 dona

2021- yil — 2984 dona

2022- yil — 3232 dona